



COOKIE FAYLLARIDAN FOYDALANISH SIYOSATI

Ushbu Cookie Siyosati, (keyingi o'rinlarda, Siyosat) "RTL-GLOBAL" mas'uliyati cheklangan jamiyati (shu yerda va keyingi o'rinlarda, RTL) tomonidan saytga tashrif buyurish va undan foydalanish paytida foydalanuvchilarning cookie-fayllaridan foydalanish tartibi va shartlarini belgilaydi <https://rtlalliance.uz>.

Saytdan foydalanish bilan, siz ushbu Siyosatga roziligingizni bildirasiz.

Cookies nima?

Cookie-fayllari - ular orqali Saytga kirish amalga oshiriladigan qurilmaga yuklanuvchi kichik fayllardir (shu jumladan, biroq bular bilan cheklanib qolmasdan, mobil telefonlar, kompyuterlar, planshetlar va boshqa qurilmalar). Odatda, qurilmangizda saqlangan cookie fayllari siz bitta Saytga qayta kirganingizda yoki ularni taniy oladigan boshqa saytga yuboriladi.

Cookie fayllari nima uchun ishlatiladi?

Cookie-fayllari, bizga sizning shaxsingizni aniqlash, bizning Saytimizda amalga oshiradigan harakatlaringiz, shuningdek sizning afzal ko'rishlaringiz haqida ma'lumot olish imkonini beradi va shu orqali Saytga tashrifingizni yanada qulayroq qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, cookie-fayllari yordamida biz va bizning hamkorlarimiz aynan sizning qiziqishlaringiz va afzal ko'rishlaringizga eng mos keladigan reklama bilan ta'minlashimiz mumkin.

Biz qanday cookie fayllaridan foydalanamiz?

Seansli va doimiy cookie'lar

Cookie-fayllarining amal qilish muddatlari, brauzerdagi ish seansi oxirida tugashi (foydalanuvchi brauzer oynasini ochganida seans boshlanadi va oynani yopganida u tugaydi) yoki ular uzoqroq saqlanishi ham mumkin.

Seansli cookie fayllari - brauzerdagi ish seansi vaqtida foydalanuvchining saytdagi harakatlarini qiyoslash imkonini beradi. Ushbu seansli cookie fayllarining amal qilish muddati, brauzerda ishlash seansi oxirida tugaydi.

Seansli cookie fayllaridan (har qanday holda ham foydalanuvchining kompyuterida doimiy saqlanmaydi, va brauzer yopilganidan so'ng darhol avtomatik tarzda o'chirib tashlanadi) faqat ma'lum bir seans haqidagi ma'lumotlarni uzatish, shuningdek, tarmoqda xavfsiz va samarali ishni ta'minlash uchun foydalaniladi (server tomonidan yaratilgan tasodifiy raqamlar to'plami ko'rinishida).

Doimiy cookie fayllari - foydalanuvchining qurilmasida, brauzerdagi ish seanslari orasidagi tanaffuslarda saqlanadi, bu esa o'z navbatida foydalanuvchining saytdagi (va ba'zi hollarda, har



xil saytlarda) afzal ko'rishlari yoki harakatlarini eslab qolish imkonini beradi. Doimiy cookie fayllari, turli tuman vazifalarni, jumladan, foydalanuvchilarning saytdagi afzal ko'rishlari va harakatlarini eslab qolish vazifalarini bajaradi.

O'z va tashqi cookie fayllari - o'z yoki tashqi sayti yoki domenida joylashtirilganligi nuqtai-nazaridan farq qiladi. O'z cookie fayllari - tashrif buyuruvchi tashrif buyurgan, ya'ni manzili URL havolasi bilan oynada ko'rsatiladigan saytga joylashtirilgan fayllardir. RTL kompaniyasi tomonidan joylashtirilgan cookie fayllari uchun shunday saytning manzili <https://rtlalliance.uz> bo'ladi. Tashqi cookie fayllari - foydalanuvchi tashrif buyurayotgan domenda joylashtirilmagan cookie fayllari, ya'ni boshqa kompaniyalar va saytlar tomonidan joylashtirilgan cookie-fayllardir.

Cookie fayllarini qabul qilish, nazorat qilish tartibi

Ba'zi cookie fayllarsiz ushbu sayt normal faoliyat ko'rsata olmaydi. Bunday hollarda, foydalanuvchining roziligi talab qilinmaydi.

Boshqa cookie fayllar asosli tarzda juda zarur yoki muhim, biroq bir vaqtning o'zida qat'iy shart bo'lmasligi mumkin, shuning uchun bu holatda foydalanuvchining roziligi talab qilinadi. Bunday cookie fayllarini qurilmangizga yuklashdan oldin, sizning bunga roziligingizni so'raymiz.

Cookie'larning faolligini to'xtatish

Agar siz har qanday ikkinchi darajali cookie fayllaridan foydalanishga rozilik berishni xohlamasangiz yoki roziligingizni qaytarib olmoqchi bo'lsangiz, cookie fayllari sozlamalaringizdagi sozlamalarni o'zgartirishingiz yoki brauzeringizdagi sozlamalarda cookie fayllarini o'chirish va bloklash yoki ulardan foydalanishni taqiqlashingiz kerak bo'ladi. Bunday sozlamalar, ko'pincha internet brauzeringizning "Sozlamalar" yoki "Afzal ko'rishlar" joylashgan bo'ladi. Batafsilroq ma'lumotni, internet brauzeringizning "Ma'lumotlar" bo'limida ham topishingiz mumkin.

Agar siz cookie fayllarini o'chirib qo'ysangiz yoki ularni olib tashlasangiz, siz saytning barcha funksiyalaridan foydalana olmasligingiz yoki Saytning barcha sahifalari to'g'ri ko'rsatilmashligi mumkinligiga e'tibor berishingizni so'raymiz.

Cookies fayllaridan foydalanish siyosatini yangilash

Biz ushbu siyosatni istalgan vaqtda bir tomonlama o'zgartirish huquqiga egamiz, bunda, har bir o'zgarish, yangi qabul qilingan siyosat bizning saytimizda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.



Cookie fayllar haqida qo'shimcha ma'lumot olish, shuningdek, sizni qiziqtirgan har qanday savol bo'yicha biz bilan quyidagi elektron pochta orqali bog'lanishingiz mumkin: info@rtlalliance.uz

Oxirgi tahrir sanasi:

08/06/2022